



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## №5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

# 2025



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

*Elektron nashr. 374 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-mayda ruxsat etildi.*



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor

**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

**Buzrukxonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

**Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Khusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 Makroiqtisodiyot  
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 Ekonometrika va statistika  
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 Marketing  
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 Menejment  
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|  |     |
|--|-----|
| “Zavur kollektor suvlarining kimyoviy tarkibi tahlili va ularni tozalash zarurati (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)”.....                                     | 20  |
| <b>Kungiratbay Sharipov, Ma‘ruf Nurmanov</b>   |     |
| Forming demand and stimulating sales in Uzbekistan.....  | 26  |
| <b>Musayeva Shoirazimovna</b>  |     |
| Членство в ВТО как драйвер развития: взгляд Узбекистана через призму опыта Вьетнама и Казахстана.....  | 30  |
| <b>Ж.Я.Нуриллаев</b>   |     |
| Mamlakatimizda tizimli ahamiyatga molik banklarni aniqlash tartibi va ularning bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta‘sirini tahlili.....                           | 37  |
| <b>Xolmamatov Farhodjon Kubaevich</b>  |     |
| O‘zbekiston respublikasida aholi bandligini ta‘minlashdagi dolzarb masalalar.....  | 44  |
| <b>Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li</b>  |     |
| O‘zbekiston respublikasida elektr energiyasi ta‘minoti hajmini yalpi ichki mahsulot hajmiga ta‘sirini ekonometrik tahlil qilish.....                                 | 48  |
| <b>Fayziyev Rabim Alikulovich</b>  |     |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarini takomillashtirish amaliyoti.....  | 60  |
| <b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>  |     |
| Qishloq xo‘jaligi kooperativi boshqaruv tizimida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari.....  | 67  |
| <b>Abduraxmanov Ramazon Abdullayevich</b>  |     |
| O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmini prognozlashda ekonometrik modellar (yillik).....   | 72  |
| <b>Qodirov Farxod Amirovich, Bo‘ribaeva Qundiz Muratbaevna</b>   |     |
| Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....  | 77  |
| <b>Mahamatova Maftuna</b>  |     |
| Xufiyona va yashirin iqtisodiyotning amaliy tahlili o‘zbekiston miqyosida.....   | 83  |
| <b>Koshanov Abdimurat Azat uli</b>   |     |
| Soliq tizimini barqarorligini belgilovchi omillar tahlili.....   | 87  |
| <b>Nurillayev Jasurbek Davronbekovich</b>  |     |
| Mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlash omillari.....   | 92  |
| <b>Soatova Nodira Boboxanovna</b>  |     |
| Bank infratuzilmasining raqamli transformatsiyasi va resurslar bazasi shakllanishi: nazariy asoslar va texnologik yondashuvlar.....                                  | 97  |
| <b>Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o‘g‘li</b>  |     |
| Ichki auditning transformatsion potentsiali: tahliliy amallarni takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish.....  | 102 |
| <b>Misirov Akbarali Pardaboyevich, Ismoilov Asadbek Abdusamat o‘g‘li</b>   |     |
| Xorijiy mamlakatlarda yashil moliyalashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....   | 110 |
| <b>Qorriyeva Shahnoza Safarbayevna</b>   |     |
| Yashil moliya – iqtisodiy rivojlanish mexanizmi sifatida.....  | 117 |
| <b>Nodir Xidirov G‘iyosaliyevich</b>   |     |
| Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning likvidiligi va moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning xorij tajribasi va uning amaliy ahamiyati.....                             | 122 |
| <b>Bauyetdinov M.J.</b>  |     |
| Теоретические подходы к определениям агрессий социально - экономической и политической стабильности государства как фактор повышения рекреационных потребностей..... | 128 |
| <b>Алимова Райхона Баходировна</b>   |     |
| Innovatsion ta‘lim texnologiyalari asosida talabalarning metodik tayyorgarligini shakllantirish.....   | 139 |
| <b>Komilov Umidjon Normurod o‘g‘li, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi</b>   |     |



|   |     |
|---|-----|
| Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish manbalari .....  | 143 |
| <b>Nematulloev Suxrob Sobirovich</b>  |     |
| Bir qatlamli elastik asosda joylashgan to'sinning seysmik kuchlar ta'siridagi tebranishining V.Z. Vlasov usuli asosida analitik tadqiqi ..... | 148 |
| <b>Kamola Xaydarova</b>   |     |
| "Sibir daryolarining burilishi" loyihasining tarixiy va retrospektiv tahlili .....  | 153 |
| <b>Mahmudov Nosir Mahmudovich</b>   |     |
| Sarguzasht turizmini rivojlanishi va sarguzasht turlarda turistlarning xavfsizligini ta'minlashda instruktor-gidlarning roli .....            | 159 |
| <b>Tilovmurodov Dostonbek Furqat o'g'li</b>   |     |
| Scientific-theoretical foundations of the use of ict in ensuring management efficiency and security in enterprises .....                      | 165 |
| <b>Khalilov Bekzod Akhmatovich</b>  |     |
| Tijorat banklarida kredit riskini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....  | 171 |
| <b>Mirtursunova Dinara Anvarovna</b>  |     |
| O'zbekiston respublikasi tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini joriy etishni takomillashtirish yo'llari.....                         | 175 |
| <b>Tangriyev Izzat Raxmatullayevich</b>   |     |
| Qashqadaryo viloyatida eko va etno turizmni rivojlantirishning istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi.....                                   | 181 |
| <b>Erkayeva Barno, Xushvaqto'v Ramziddin</b>  |     |
| O'zbekiston bank tizimida raqamli valyutalar va yashil investitsiyalar integratsiyasini takomillashtirish .....                               | 186 |
| <b>Nodirov Azizxon Asrorovich</b>   |     |
| Global energiya noaniqligining o'zgaruvchanligi ekonomertik modellari .....   | 192 |
| <b>Bexzod Qo'ziboev</b>   |     |
| Экоцифра: цифровизация МСП для зеленого устойчивого роста .....   | 197 |
| <b>С.С. Убаева</b>  |     |
| Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish va ekologik toza hududni yo'lga qo'yishning ahamiyati .....                                       | 201 |
| <b>Ergashov Ulug'bek Zoxidjonovich</b>  |     |
| Statistika fanining shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari.....  | 206 |
| <b>Nabixodjaev Abbas Abdupattahovich, Umarova Mukaddas Abbasovna</b>  |     |
| Hududlarning atmosferaga chiqaradigan zararli chiqindilar miqdorini sanoat mahsulotiga nisbati bo'yicha tahlili .....                         | 210 |
| <b>Baqoyev Husan Nuriddinovich</b>  |     |
| Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish .....                                    | 216 |
| <b>Nuraliyeva Komila Sanakulovna</b>  |     |
| Qishloq xo'jaligini «yashil» iqtisodiyot asosida rivojlantirishga o'tishning zarurligi va mohiyati.....                                       | 221 |
| <b>Yoldoshev Mutalib Ibrohimovich</b>   |     |
| Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "yashil investitsiyalar" dan foydalanishning xorij tajribalari .....                                 | 225 |
| <b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna, Rustamova Nasiba Arslanovna</b>  |     |
| Ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlar va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni.....  | 230 |
| <b>Raxmonova Feruza Musaqulovna</b>   |     |
| Oliy ta'lim xizmatlarini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tutgan o'rni.....  | 234 |
| <b>Mirzaxajeva Shaxzoda Shuxratovna</b>   |     |
| Tijorat banklari muammoli kreditlarining likvidlilikka ta'siri.....   | 240 |
| <b>Karshiyev Adham Anvarovich</b>   |     |
| Kichik firmalarning raqobatbardoshligini oshirishning nazariy metodologik jihatlari.....  | 245 |
| <b>Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Aliyev Maqsudbek Erkinovich</b>  |     |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlari.....  | 251 |
| <b>Talapova Nargiza Baxriddinova</b>  |     |



|   |     |
|---|-----|
| “Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvining psixologik xususiyatlari” .....   | 255 |
| <b>Saidbekova Feruza Anvarbek qizi</b>  |     |
| Aholi daromadlarini diversifikatsiya qilishda davlat siyosatining roli va imkoniyatlari .....   | 258 |
| <b>Nutfullayev Shohrux Mexli o‘g‘li, Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich</b>   |     |
| Анализ показателей развития зелёной химии по всему миру и в узбекистане за последние десять лет .....                                 | 262 |
| <b>Фозилова Фирангиза Комиловна</b>   |     |
| Tijorat banklarining o‘zbekiston respublikasi iqtisodiyotiga ta’siri .....  | 270 |
| <b>Masharipov Rasulbek Jo‘rabekovich</b>  |     |
| Biznes birlashuvda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish yo‘nalishlari .....   | 273 |
| <b>Hamroyeva Zuhra Amiral qizi, Xayitboyeva Laylo Oybekovna, Mirzarayimov Sardorbek Ravshanovich</b>                                  |     |
| O‘zbekiston respublikasida pul-kredit siyosatining maqsadi .....  | 277 |
| <b>Adilov Zuxriddin Marip o‘g‘li</b>  |     |
| Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish va bozorlararo aloqalarining statistik o‘zgarish tendensiyalari .....             | 281 |
| <b>Zakirova Umida Maxamadaminovna</b>   |     |
| Iqtisodiy bilimlarni shakllanishi va rivojlanishi .....   | 286 |
| <b>Po‘latov Abdulloh Xolxo‘jayevich</b>   |     |
| Теоретические основы эффективного управления финансовыми ресурсами предприятий с государственной долей (на примере узбекистана) ..... | 291 |
| <b>Ахмедов Дилшод Турсункулович</b>   |     |
| Robototexnika asoslari va maktab ta’limida qo‘llanilishi .....  | 298 |
| <b>Tuxliyev Muslimbek Sherzod o‘g‘li</b>  |     |
| Sun‘iy intellektlar yordamida o‘quvchilarni hayotiy faoliyat ko‘nikmasini shakllantirishi .....                                       | 303 |
| <b>Mirxasilova Zulfiya Kochkarovna, Abdurahmanova Ozoda Djo‘rayevna, Kurbanov Azimjon Jo‘raboy o‘g‘li</b>                             |     |
| Levi tengsizligi uchun A.N. Kolmogorov teoremlari .....   | 316 |
| <b>Saypiddinov Shukrullo Sadrdinovich, Baxramov Rustamjon Qambarali o‘g‘li</b>  |     |
| Rivojlanayotgan mamlakatlar bank tizimida raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish afzalliklari .....                           | 320 |
| <b>Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich</b>  |     |
| O‘zbekiston respublikasining mdh mamlakatlari bilan tashqi savdo faoliyati tahlili: o‘zgarish tendensiyalari va istiqbollari .....    | 326 |
| <b>Ilyosov Asrorjon Axrorjon o‘g‘li, Abdullaev Alisher Maxmudovich, Tuxtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</b>                           |     |
| Elektron tijoratni rivojlantirishning xorij tajribasi .....   | 330 |
| <b>Madieva Zuxra Iskandarbekovna</b>  |     |
| Inson resurslarini o‘rganishning asosiy yondashuvlari: mohiyat-ta’rifiy tahlil .....  | 336 |
| <b>Bakirov Qobiljon Mamatyusupovich</b>   |     |
| Bandlikni ta’minlashda davlat tomonidan institutsional muhit yaratishning roli .....  | 340 |
| <b>Dilorom Tojiboyeva, Umida Ravshanovna Anvarova</b>   |     |
| Mamlakatimizda islom moliyasini rivojlantirish maqsad va choralari .....  | 346 |
| <b>Xoliyovov Xomid Boynazarovich</b>  |     |
| Разработка экспертной системы для оценки финансового состояния предприятия .....  | 352 |
| <b>Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna</b>  |     |
| Farg‘ona vodiysi viloyatlarida kichik biznes ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi: panel regressiya tahlili .....                           | 362 |
| <b>Tojiyeva Muhabbatxon Mansurjon qizi</b>  |     |
| O‘zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolar va ularning yechimlari .....                | 368 |
| <b>Farmonov Ilhomjon Iqboljon o‘g‘li</b>  |     |



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNI HISOBLASHDAGI ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

**Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li**

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

E-mail: [i.i.farmonov@kokanduni.uz](mailto:i.i.farmonov@kokanduni.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash jarayonida yuzaga kelgan asosiy muammolar va ularning yechimlarini tahlil qiladi. Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchligini ta'minlash, yashirin iqtisodiyotni baholash, xalqaro standartlarga mos kelish kabi masalalar ko'rib chiqiladi. Mamlakat iqtisodiyoti barqaror o'sishni namoyon etgan bo'lsa-da, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash va prognoz qilishda bir qator qiyinchiliklar kuzatilgan. Asosiy muammolardan biri inflyatsiya darajasini aniq baholash bilan bog'liq bo'lib, 2023- yilning dastlabki yetti oyida o'rtacha oylik inflyatsiya 0,7 foizni tashkil etgan. Bu esa pul-kredit siyosatini shakllantirishda noaniqliklarga olib kelgan. Bundan tashqari, davlat byudjeti daromadlarini prognoz qilishda soliq ma'murchiligi va yashirin iqtisodiyotni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. 2024-yilda davlat byudjeti daromadlarini oshirish uchun soliq ma'murchiligini takomillashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirish choralari ko'rilgan. Ushbu maqolada yuqoridagi muammolar tahlil qilinib, ularning yechimlari bo'yicha tavsiyalar beriladi. Xususan, statistik ma'lumotlar sifatini oshirish, zamonaviy iqtisodiy modellarni joriy etish va xalqaro standartlarga mos keladigan hisoblash usullarini qo'llash orqali makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning aniqligini ta'minlash muhimligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, Inflyatsiya, Davlat byudjeti, Xalqaro standartlar, Iqtisodiy o'sish, Milliy hisob tizimi, Pul-kredit siyosati.

**Abstract:** This article analyzes the main problems that arose in the process of calculating macroeconomic indicators in the Republic of Uzbekistan and their solutions. The study considers issues such as ensuring the completeness and reliability of statistical data, assessing the hidden economy, and compliance with international standards. Although the country's economy has shown stable growth, a number of difficulties have been observed in determining and forecasting macroeconomic indicators. One of the main problems is related to the accurate assessment of the inflation rate, and in the first seven months of 2023, the average monthly inflation was 0.7 percent. This led to uncertainties in the formation of monetary policy. In addition, taking into account tax administration and the hidden economy is of great importance when forecasting state budget revenues. In order to increase state budget revenues in 2024, measures were taken to improve tax administration and reduce the hidden economy. This article analyzes the above problems and provides recommendations for their solutions. In particular, the importance of improving the quality of statistical data, introducing modern economic models, and ensuring the accuracy of macroeconomic indicators by using calculation methods that comply with international standards is emphasized.

**Key words:** Macroeconomic indicators, Inflation, State budget, International standards, Economic growth, National system of accounts, Monetary policy.

**Аннотация:** В статье анализируются основные проблемы и пути их решения, возникшие в процессе расчета макроэкономических показателей в Республике Узбекистан. В исследовании будут рассмотрены такие вопросы, как обеспечение полноты и достоверности статистических данных, оценка теневой экономики, соответствие международным стандартам. Несмотря на то, что экономика страны демонстрирует устойчивый рост, существует ряд трудностей в определении и прогнозировании макроэкономических показателей. Одна из основных проблем связана с точностью оценки уровня инфляции: среднемесячная инфляция за первые семь месяцев 2023 года



составила 0,7%. Это привело к неопределенности в формулировании денежно-кредитной политики. Кроме того, при прогнозировании доходов государственного бюджета важен учет налогового администрирования и теневой экономики. В целях увеличения доходов государственного бюджета в 2024 году приняты меры по совершенствованию налогового администрирования и сокращению теневой экономики. В статье анализируются вышеуказанные проблемы и даются рекомендации по их решению. В частности, подчеркивается важность обеспечения точности макроэкономических показателей за счет повышения качества статистических данных, внедрения современных экономических моделей, использования методов расчетов, соответствующих международным стандартам.

**Ключевые слова:** Макроэкономические показатели, Инфляция, Государственный бюджет, Международные стандарты, Экономический рост, Система национальных счетов, Денежно-кредитная политика.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va samarali iqtisodiy siyosat yuritish yo'lida muhim yutuqlarga erishib kelmoqda. Biroq, mamlakatda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash, tahlil qilish va prognozlashda bir qator tizimli va metodologik muammolar hali hamon mavjud. Bu muammolar iqtisodiy siyosatning asosiy tarkibiy qismlarini shakllantirishda, resurslardan samarali foydalanishda, shuningdek, xalqaro reyting va investitsion muhitni baholashda jiddiy to'siqlarga sabab bo'lishi mumkin.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar har qanday davlat iqtisodiyotining barqarorligini va rivojlanish sur'atlarini baholash uchun asosiy vositalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bu ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish jarayoni so'nggi yillarda jadal rivojlanib, xalqaro standartlarga moslashish yo'nalishida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Biroq, bu jarayonda bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ular iqtisodiy prognozlarining aniqligi va samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini oshirish kabi chora-tadbirlar iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda muammolar mavjud bo'lsa, ular iqtisodiy tahlil va prognozlashda noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Zamonaviy iqtisodiy jarayonlarni shakllantirish va uni samarali boshqarishning ajralmas qismi sifatida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar asosan yalpi ichki mahsulot (YalM), inflyatsiya darajasi, ishsizlik ko'rsatkichi, tashqi savdo balanslari va davlat qarzi hajmi kabi parametrlar davlatning iqtisodiy holatini baholash, strategik rejalashtirish va xalqaro iqtisodiy integratsiyada ishtirok etish uchun zarur bo'lgan asosiy vositalardir. Aynan shu sababli, ularning aniqligi, aniqlovchanligi va xalqaro standartlarga mosligi dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida ko'riladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va ularning metodologik asoslarini chuqur o'rganish iqtisodiyotni barqaror boshqarishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, milliy hisoblar tizimini (SNA – System of National Accounts) xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, statistik axborotlarni raqamlashtirish, va regional tafovutlarni hisobga olgan holda hisoblash usullarini takomillashtirishga qaratilgan. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ), BMT Statistika bo'limi va Yevrostat tomonidan ishlab chiqilgan metodologik qo'llanmalar, xususan, SNA-2008 modeli, bugungi kunda rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun ham asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu xalqaro hujjatlarda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yalpi ichki mahsulot (YalM), yalpi milliy daromad (YMD), sof eksport, iste'mol va investitsiya darajalari aniqligi va izchilligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlar bayon etilgan.

Ushbu mavzu yuzasidan ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Jerven ushbu maqolasida statistik axborotlar sifati va ishlab chiqilish jarayonidagi muammolarni tahlil qilgan. U, ayniqsa, YalM, inflyatsiya va aholi bandligi ko'rsatkichlarining hisoblash metodikasidagi nomuvofiqliklar rivojlanayotgan mamlakatlarda noto'g'ri siyosiy qarorlar qabul qilinishiga olib kelishini ta'kidlaydi. O'zbekiston holatida ham statistikani hisoblashda metodologik turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, bu holat ushbu maqola bilan bog'liq dolzarb muammodir<sup>1</sup>.

1 Jerven, M. (2019). Poor Numbers: How We Are Misled by African Development Statistics and What to Do About It. Cornell University Press.



Deaton va Schreyer 2020-yilda SNA (Milliy hisoblar tizimi) yangilanishi doirasida YalMni kengroq tushunishga chaqiradi. Ular mavjud indikatorlar inson farovonligi va sog'liq holatini yetarli darajada aks ettirmasligini ta'kidlab, muqobil ko'rsatkichlarni (masalan, "Green GDP" yoki "Adjusted Net Saving") joriy qilishni taklif etadilar. Bu yondashuv O'zbekistonning barqaror rivojlanish kontekstida statistik tizimni yangilash zaruriyatini ochib beradi<sup>2</sup>.

Mazkur maqola rivojlanayotgan mamlakatlardagi statistik salohiyat yetishmovchiligi va uning iqtisodiy siyosatga ta'sirini o'rganadi. Mualliflar hisoblashda ishlatiladigan ma'lumotlarning sifatsizligi, siyosiy bosim ostida noto'g'ri ko'rsatkichlar e'lon qilinishi va xalqaro tashkilotlar bilan nomuvofiqliklarni tahlil qiladilar. O'zbekiston holatida ham bu muammolar statistik islohotlar zaruratini kuchaytiradi<sup>3</sup>.

Bedi va hammualliflar o'z maqolalarida statistik tizimlarning zaiflashgan hududlarda qanday mustahkamlanishi mumkinligini ko'rsatadilar. Ular statistik modernizatsiya uchun zarur bo'lgan infratuzilma, kadrlar salohiyati, moliyalashtirish va xalqaro hamkorlikni muhim deb hisoblaydilar. O'zbekistonda ham mustaqil va barqaror statistik tizim yaratish uchun bu yondashuvlar dolzarbdir<sup>4</sup>.

Ushbu maqola Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlarida, xususan, sobiq sovet respublikalarida statistik metodologiyalarning modernizatsiyasi tajribasiga bag'ishlangan. Mualliflar O'zbekistonga o'xshash iqtisodiy transformatsiya jarayonidagi mamlakatlar uchun xalqaro metodikalarni moslashtirish va milliy sharoitlarga integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydilar<sup>5</sup>.

A.Sharipov "Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ishlab chiqarish salohiyatiga ta'siri" haqidagi tadqiqotda O'zbekistonning milliy iqtisodiyotidagi yuqori sur'atdagi rivojlanishga qaramay, ayrim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning aniqligida hali ham kamchiliklar mavjudligini ko'rsatgan. Uning fikricha, bu muammo davlat statistikasi va aniq usullar asosida hisoblashdagi xatolarni to'g'rilashni talab qiladi<sup>6</sup>.

M.Po'latov o'z tadqiqotida iqtisodiy o'sishning aniq prognozlanishi uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yangilangan metodologiyalariga talab borligini ta'kidlagan. Uning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ishlab chiqarish hajmlarini hisoblashning yangilangan usullari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi<sup>7</sup>.

N.Qodirov inflyatsiyaning milliy iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qildi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yagona hisob-kitob tizimini joriy etish zarurligini ko'rsatdi. Uning fikricha, inflyatsiyani aniq hisoblash va uning ijobiy va salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun yangi statistik metodlar talab qilinadi<sup>8</sup>.

V.Nazarov makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning rivojlanishini, ayniqsa iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini tahlil qildi. Uning izlanishlari O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va inflyatsiyani prognozlashdagi asosiy muammolarni aniqlashga qaratilgan. U makroiqtisodiy prognozlarni aniqlashda davlat siyosatining rolini katta deb hisoblaydi<sup>9</sup>.

Tadqiqotchi A.To'rayev makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning aholining hayot sifatiga ta'sirini tahlil qildi. Uning tadqiqoti aholi farovonligini oshirish uchun inflyatsiya va ishsizlikni aniq hisoblash zarurligini ko'rsatdi<sup>10</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash jarayonida yuzaga kelayotgan metodologik va amaliy muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida qo'llanilayotgan hisob-kitob usullari boshqa rivojlanayotgan davlatlar, xususan, Qozog'iston, Gruziya va Polsha tajribasi bilan solishtirildi. Natijada, xalqaro standartlarga asoslangan ilg'or amaliyotlar aniqlanib, mahalliy tizimga moslashuv imkoniyatlari baholandi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida klassik iqtisodiy tahlil uslublari, komparativ tahlil, va zamonaviy empirik metodlar uyg'un holda qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni tahlil qilishdagi muammolar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini, ijtimoiy barqarorlikni va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning samaradorligini ta'minlash uchun

- 2 Deaton, A., & Schreyer, P. (2020). GDP, wellbeing, and health: Thoughts on the 2020 revision to the system of national accounts. *Review of Income and Wealth*, 66(S1), S147–S161. <https://doi.org/10.1111/roiw.12462>
- 3 Taylor, L., & Rezai, A. (2021). Statistical capacity and economic policy in developing countries. *Cambridge Journal of Economics*, 45(6), 1249–1268. <https://doi.org/10.1093/cje/beab032>
- 4 Bedi, T., Coudouel, A., & Cox, M. (2023). Strengthening statistical systems in fragile states. *World Bank Research Observer*, 38(1), 45–70. <https://doi.org/10.1093/wbro/lkad001>
- 5 Langlois, J., & Zhang, Y. (2024). Improving national accounts in transition economies: Lessons from Eastern Europe and Central Asia. *Journal of Development Economics*, 162, 103089.
- 6 Sharipov, A. Sh. (2021). Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. *Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali*, 45(3), 32-45.
- 7 Po'latov, M. R. (2020). Makroiqtisodiy prognozlash: yangi metodologiyalar. *Iqtisodiy tahlil* 34(2), 58-64.
- 8 Qodirov, N. T. (2022). Inflyatsiyaning makroiqtisodiy ta'siri. *O'zbekiston iqtisodiyoti* 67(1), 77-83.
- 9 Nazarov, V. A. (2019). Iqtisodiy barqarorlik va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. *Iqtisodiy rivojlanish* 29(4), 100-112.
- 10 To'rayev, A. F. (2021). Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va aholining hayot sifati. *Hayot sifati tadqiqotlari* 22(6), 67-73.



aniq, ishonchli va zamonaviy statistik usullarni joriy qilish zarurligini ko'rsatadi. Muammolarni aniqlash va ularga yechimlar ishlab chiqish, davlatga, xususiyl sektorga va xalqaro hamkorlarga mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini barqarorlashtirish va samarali boshqarish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashdagi asosiy muammolarni aniqlash va ularning yechimlarini ishlab chiqish uchun trend tahlili muhim rol o'ynaydi, chunki bu jarayon iqtisodiy siyosatning samaradorligini o'lchashga, mavjud muammolarni tezda aniqlashga va ular bo'yicha qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Mavjud makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishini va ular o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish, iqtisodiyotning umumiy holatini baholashga, inflyatsiya, ishsizlik, eksport-import balansidagi o'zgarishlar kabi asosiy masalalarni tushunishga yordam beradi. Trend tahlili, shuningdek, iqtisodiy siyosat va uning natijalarini aniqlashda qo'llaniladigan samarali vosita bo'lib, davlat va moliyaviy institutlarga kelajakda qanday strategiyalarni qo'llash kerakligini ko'rsatib beradi. O'zbekistonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar, ayniqsa YIM o'sishi, inflyatsiya darajasi va tashqi savdo muvozanati kabi sohalarda, iqtisodiy strategiyalarni shakllantirishda asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda. Trend tahlili yordamida ushbu ko'rsatkichlarning kelajakdagi o'zgarishlarini prognozlash, mavjud muammolarni hal qilish va yangi iqtisodiy strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini ko'rish mumkin. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu metodologik yondashuvlar O'zbekistonda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashdagi muammolarni aniqlash va ularni samarali hal etishga yordam beradi. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar nafaqat ekonomik tahlil, balki statistika va davlat siyosatini kuzatishda ham muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish borasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan muhim o'zgarishlar iqtisodiy barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Bu o'zgarishlar makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning aniqligi, ularni prognozlash usullarining yaxshilanishi va iqtisodiy siyosatning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan. 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotidagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar barqaror o'sish tendensiyasini namoyon qilmoqda. Yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sish sur'ati 6,1%dan 6,5%gacha o'sgan bo'lib, bu mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va tashqi sarmoyalarni jalb qilish choralarini samaradorligini ko'rsatadi.

Inflyatsiya darajasi yil sayin pasayib borgan — 2020-yilda 15,0% bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda 8,8%ga tushgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning pul-kredit siyosatidagi barqarorlikni aks ettiradi.


Ishsizlik darajasida keskin o'zgarishlar kuzatilmagan — u 5,8% atrofida saqlanib kelgan. Bu mehnat bozorida joriy etilayotgan choralar ma'lum darajada samara berayotganini ko'rsatadi. Eksport hajmi 2020-yilda 18,5 milliard dollardan 2024-yilda 26,95 milliard dollargacha ko'tarilgan.

O'zbekistonda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish orqali ma'lum bo'lmoqdaki, so'nggi yillarda mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari ijobiy dinamikada davom etmoqda. Inflyatsiyani pasaytirish va ishsizlikni barqarorlashtirish borasida muhim natijalarga erishilgan.

O'tkazilgan tahliliy izlanishlar natijasida O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashda bir qator muhim tizimli va metodologik kamchiliklar mavjudligi aniqlandi. Quyida asosiy natijalar tahliliy ko'rinishda keltirilgan:

YalM bo'yicha rasmiy va taxminiy tafovutlarni ko'rib chiqilgan.


Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 2019–2023-yillar davomida rasmiy statistikada aks etgan yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmlari iqtisodiy real voqelikni to'liq aks ettirmaydi. Xususan, norasmiy iqtisodiyot ulushi hisobga olingan taxminiy real YalM ko'rsatkichlari rasmiy ma'lumotlardan har yili o'rtacha 4–6% yuqori chiqmoqda. 1-rasmda keltirib o'tilgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda Yalpi ichki mahsulotini o'sish darajasi<sup>11</sup>

11 Muallif tomonidan ishlangan

Norasmiy sektor ta'siri va inflyatsiya bahosidagi muammolari asosan norasmiy sektorning iqtisodiyotdagi salmog'i o'rtacha 29–31% atrofida bo'lib, bu makroiqtisodiy tahlil va prognozlarning aniqligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasini hisoblashda narxlar tanlovi va statistik qamrovning yetarli emasligi sababli ayrim yillarda real inflyatsiya darajasi rasmiy ko'rsatkichlardan farq qilgan. Quyida 2-rasmda inflyatsiya va norasmiy sektor ulushidagi dinamik o'zgarishlar aks ettirilgan (2-rasm):



2-rasm. Inflyatsiya va norasmiy sektor ulushidagi dinamik o'zgarishlar<sup>12</sup>.

O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirish va hisoblash tizimi keyingi yillarda sezilarli darajada modernizatsiyalashga qaratilgan islohotlar doirasida rivojlanib bormoqda. Bir tomondan, iqtisodiy faollikni o'lchashda norasmiy sektor hisobga olinmasa, YalM, ishsizlik yoki inflyatsiya kabi indikatorlar noto'g'ri shakllanadi. Bu esa davlat byudjeti, soliq siyosati yoki investitsion qarorlar qabul qilishda xatolarga olib keladi. Xalqaro tajribalar ko'rsatadiki, bunday holat faqat statistik tizimda emas, balki butun iqtisodiy boshqaruv tizimida samarasizlikni yuzaga keltiradi. Tadqiqotda aniqlangan yana bir muhim muammo – statistik tahlillarda zamonaviy texnologiyalar, jumladan, katta hajmdagi ma'lumotlar (big data), sun'iy intellekt yoki mobil to'lovlar orqali olinadigan real vaqti ma'lumotlardan yetarlicha foydalanilmayotganidir. Raqamli texnologiyalar yordamida nafaqat aniqlik oshadi, balki indikatorlarni shakllantirish tezligi va moslashuvchanligi ham sezilarli darajada kuchayadi. Shu asosda aytish mumkinki, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun kompleks va bosqichma-bosqich yondashuv zarur. Bunda birinchi navbatda statistika tizimini xalqaro metodologiyalar asosida isloh qilish, raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish va kadrlar salohiyatini oshirish ustuvor yo'nalishlar bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini shakllantirishda yuzaga kelayotgan tizimli muammolarni aniqlash maqsadida olib borilgan ushbu tadqiqot quyidagi asosiy natijalarni namoyon etdi. Tahlil natijalariga ko'ra, 2019–2023-yillar oralig'ida norasmiy iqtisodiy faoliyat mamlakat YalMning o'rtacha 29–31 foizini tashkil qilgani aniqlangan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash tizimi izchil takomillashib bormoqda. Inflyatsiyani aniq prognozlash uchun ommaviy ma'lumotlarni yig'ish va ularni tahlil qilish usullarini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Xususan, inflyatsiyaning ijobiy va salbiy ta'sirini bartaraf qilish uchun tadbirkorlik muhitini yaxshilash, davlatning fiskal siyosatini kengaytirish va narxlar nazoratini joriy etish kerak. Mehnat bozoridagi ishsizlikni kamaytirish uchun davlat tomonidan yangilangan mehnat siyosati va yo'nalishlar ishlab chiqish kerak. Ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy dasturlarni joriy etish, ayniqsa, yoshlar va ayollarning mehnat bozoriga integratsiyasini kuchaytirish zarur. O'zbekistonda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblashdagi muammolar iqtisodiy rivojlanishga va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu muammolarning hal etilishi uchun zamonaviy statistik usullar va elektron axborot tizimlari joriy

12 Muallif tomonidan ishlangan



qilinishi, iqtisodiy prognozlash usullari to'g'rilashtirilishi va ishsizlikni kamaytirish bo'yicha ilg'or tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari, eksportni diversifikatsiyalash va ichki ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha iqtisodiy siyosatni kuchaytirish talab etiladi.

Agar ushbu takliflar amalga oshirilsa, O'zbekistonning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari hisoblashdagi muammolarni bartaraf etish, iqtisodiy rivojlanishning samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Гойибназаров, Б., & Шарипов, Б. (2021). Экономико-статистический анализ малого бизнеса и частного предпринимательства на территории республики Узбекистан. Экономика И Образование, (4), 200-206.
2. Farmonov, I. (2024). XALQARO DARAJALARDA MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNI HISOBLASH USLUBIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 97-100.
3. Farmonov, I. I. (2025). Types, methods, and theoretical foundations of macroeconomic indicator calculation. Kokand University. <https://doi.org/10.36713/epra21084>
4. Farmonov, I. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA STRATEGIK MARKETING HAMDA RAQAMLI MARKETING FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 52-55.
5. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(11-12).
6. Karimovich, G. B. (2019). Amendments required to be taken into consideration when calculating Gross Domestic Product (on the basis of System of National Accounts-2008). International Journal of Research in Social Sciences, 9(3), 548-558.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>